**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI**
**NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASINING**
**BUYRUG‘I**

**20**22 **y.** 08 fevral **№** 08-ich

Viloyat statistika boshqarmasi hamda tuman va shahar statistika bo‘limlari xodimlariga o‘z ishining yakuniy natijasiga bo‘lgan mas’uliyat hissini oshirish, tashabbuskorlik va kasb mahoratini, professional bilimini namoyish etayotgan xodimlarni rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida,

**B U YU R A M A N:**

**1.** Viloyat statistika boshqarmasi hamda tuman va shahar statistika bo‘limlari xodimlarining lavozim oylik maoshlariga o‘rnatilgan ustamalarni ko‘rib chiqish va o‘rnatish bo‘yicha doimiy ishlovchi komissiya tarkibi quyidagicha tasdiqlansin.

| | |
|---|---|
| **Lavozimiga ko‘ra**<br>A.A.Tashnazarov | Viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i.<br>Komissiya raisi |
| **A’zolari:**<br>J.X.Umarov | Viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari |
| Z.D.Xushmatov | Kadrlar bo‘limi boshlig‘i |
| B.M.Bomurotov | Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo‘limi boshlig‘i |
| A.N.Qo‘ldoshev | Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘ma axborot ishlari bo‘limi boshlig‘i |
| S.R. Tuyg‘unov | Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi |
| **Komissiya kotibi:**<br>I.R.Djurayev | Kadrlar bo‘limi yetakchi mutaxassisi |

**2.** Komissiyaga:

-xodimlar lavozim oylik maoshlariga ustamalarni belgilash bo‘yicha materiallarni doimiy asosda ko‘rib borish - taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqish davrida xolislik, beg‘arazlik va oshkoralik tamoyillariga qattiq rioya etilishini ta’minlash;

-lavozim oylik maoshlariga ustamalarni qat’iy ravishda har bir xodimning tashabbuskorligi, mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishi, yetarli malakaga ega bo‘lganligi va bajarayotgan ish hajmidan kelib chiqqan holda belgilash;

-komissiya qarorlarini bayonnoma bilan rasmiylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

**3.** Xodimlarning lavozim oylik maoshlariga ustamalarni belgilash bo‘yicha boshqarma buyrug‘ini chiqarish faqat komissiya qarori bilan rasmiylashtirilgan bayonnoma asosida amalga oshirilsin.

**4.** Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Boshqarma boshlig‘i** **A. Tashnazarov**

Buyruq bilan tanishdik: